



**XALQ DEPUTATLARI YASHNOBOD TUMAN KENGASHINING  
QARORI**

---



---

2023 - yil 4 - yanvar

II-73-1-14-203-K/23

Yashnobod tuman hokimligi

**2023-yil uchun Yashnobod tuman mahalliy budgetini tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 99-moddasiga, O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budgeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-813-son Qonuniga hamda Xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashining 2023-yil 4-yanvardagi “2023-yil uchun Toshkent shahar mahalliy budgetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-75-1-14-0-K/23-son qaroriga muvofiq va Toshkent shahar Moliya bosh boshqarmasining 2022-yil 30-dekabrdagi 01-3/2183-sonli xatini inobatga olib, Xalq deputatlari Yashnobod tuman Kengashi

**QA R O R Q I L A D I:**

1. O‘zbekiston Respublikasining “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budgeti to‘g‘risida”gi Qonuniga (keyingi o‘rinlarda Qonun deb ataladi) va xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashining 2023-yil 4-yanvardagi “2023-yil uchun Toshkent shahar mahalliy budgetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-75-1-14-0-K/23-son qaroriga muvofiq 2023-yil uchun Yashnobod tuman mahalliy budgeti parametrlari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashining 2023-yil 4-yanvardagi “2023-yil uchun Toshkent shahar mahalliy budgetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-75-1-14-0-K/23-son qaroriga muvofiq, Yashnobod tuman mahalliy budgetining 2023-yil uchun daromadlari 136 638 000,0 ming so‘m va xarajatlari 136 638 000,0 ming so‘m balanslashgan holda prognoz qilinganligi ma’lumot uchun

qabul qilinsin.

3. 2023-yil uchun Yashnobod tuman mahalliy budgetining daromadlari prognozi 1-ilovaga muvofiq ma'lumot uchun qabul qilinsin.

4. 2023-yil uchun Yashnobod tumanining tuman mahalliy budgetidan budget mablag'larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag'larning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. 2023-yil uchun umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me'yirlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, ajratmalar me'yirlari bo'yicha Toshkent shahar mahalliy budgeti bilan tumanlar mahalliy budgetining taqsimotini o'rnatilgan tartibda Toshkent shahar bo'yicha G'aznachilik boshqarmasi tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo'yilsin.

6. 2023-yil uchun Yashnobod tumanining tuman mahalliy budgetining zaxira jamg'armasi hajmi 1 264 943,0 ming so'm miqdorida belgilansin.

7. 2023-yil uchun Yashnobod tumani budgeti shaxsiy g'azna hisobvaraqlarida turgan budget mablag'larining yo'l qo'yiladigan aylanma kassa mablag'larining eng kam miqdori 979 686,0 ming so'm etib belgilansin.

8. O'zbekiston Respublikasining mazkur Qonuni bilan 2023-yilda Xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy budgetlarni boshqarishda, xususan, mahalliy budget xarajatlarini hududiy budget mablag'lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo'yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, 2023-yilda quyidagi soliq turlari:

a) tumanlar budgetiga to'liq hajmda o'tkaziladi:

- jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i;

- jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i;

- jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan yillik daromadi to'g'risidagi deklaratasiyaga asosan jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to'lanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;

- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to'lanadigan soliq mustasno;

- davlat mulkini ijaraga berishdan tushadigan tushumlar.

b) Quyidagi soliq turlari va boshqa majburiy to‘lovlar Toshkent shahar mahalliy budgeti hamda tuman mahalliy budgetlari o‘rtasida taqsimlanadi:

- aylanmadan olinadigan soliq;
- benzinni, dizel yoqilg‘isi va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i;
- yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;
- yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan loyihalarni moliyalashtirish ko‘lamini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2022-yil 25-oktabrdagi PQ-409-son qaroriga asosan 2023 moliya yildidan boshlab:

a) Toshkent shahrining shahar budgetida shakllangan qo‘srimcha mablag‘larning

30 foizi tumanlarda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun tumanlar Fuqarolar tashabbusi jamg‘armalariga mavjud aholi soni va mahallalar sonidan kelib chiqib, teng ulushlarda yo‘naltirilishi;

b) tashabbusli budgetlashtirish jarayonlari uchun tuman (shahar) budgetlarining 5 foizi miqdorida, biroq kamida 6 milliard so‘mdan kam bo‘lmagan miqdorda mablag‘ rejallashtirilishi belgilanganligi;

v) “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlarini jamoatchilik fikri asosida tashabbusli budgetlashtirish jarayonlari orqali amalga oshirilishining yangi tartibi ishlab chiqilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

10. Yashnobod tuman hokimining birinchi o‘rribbosari (L.Temirov), tuman Moliya bo‘limi (A.Nazarov), tuman davlat soliq inspeksiyasi (U.Xatamov ) va mas’ul bo‘limlar va tashkilotlar budget mablag‘larini taqsimlovchilar bilan bиргаликда:

tegishli budgetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarning rejallashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy budget prognoz ko‘rsatkichlarini o‘z vaqtida va samarali bajarish;

budget mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

budget intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy budgetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

budget daromadlar bazasini oshirish va qo‘sishimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratilsin.

11. Yashnobod tuman davlat soliq inspeksiyasi (U.Xatamov) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida budgetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovleri bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan olinadigan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratish;

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish;

Davlat Soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi Toshkent shahar Yashnobod tuman bo‘limi bilan birgalikda tumanda mavjud soliq to‘lovchilarning mol-mulkulari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlasin.

12. Majburiy ijro byurosi Yashnobod tumun bo‘limi (A.Adilov) Yashnobod tuman davlat soliq inspeksiyasi (U.Xatamov) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budgetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rib borishni ta’minlasin.

13. Xalq deputatlari Yashnobod tuman Kengashining mahalliy budget, iqtisodiy

islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasiga:

mahalliy budgetning qo'shimcha manbalaridan foydalanish to'g'risidagi hokimlik tomonidan taqdim etiladigan takliflarini belgilangan muddatlarda jamoatchilik muhokamasidan o'tkazish;

Kengash qarori asosida mahalliy budgetning qo'shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag'larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o'rnatish, tavsiyalar berish va monitoring qilish;

mahalliy budget xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilishida ishtirok etish va ushbu mablag'larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirish vazifasi topshirilsin.

#### 14. Quyidagilar:

tuman budgeti jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo'shimcha mablag'larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"ga yo'naltirishni;

bunda, Xalq deputatlari tuman Kengashi, Yoshlar ishlar agentligi, tumanlar hokimliklari huzuridagi jamoatchilik Kengashlari hamda hokim yordamchilari, budget jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash maqsadida aholiga keng targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borishni tavsiya etish;

mahalliy budgetlarning qo'shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash ishlari olib borilayotgan ob'ektlar ro'yxati, shuningdek, qurilish-ta'mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to'g'risidagi ma'lumotlar har chorak yakunlariga ko'ra, keyingi chorak birinchi oyining 10-sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borish topshirilsin.

15. Yashnobod tuman hokimining birinchi o'rribbosari, tuman davlat soliq inspeksiyasi, tuman iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish bo'limi, tuman moliya bo'limi va tegishli bo'limlar bilan birgalikda:

mahalliy budget daromad va xarajatlarining prognoz ko'rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko'rildan chora-tadbirlar;

ajratilgan budget mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan

erishilgan natijalar bo‘yicha Xalq deputatlari Yashnobod tuman Kengashiga chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

16. Yashnobod tuman hokimligi matbuot xizmati (D.Abduxalikov):

mazkur qaror rasmiy e’lon qilinishi va <https://yashnobodnews.uz> rasmiy veb-saytiga joylashtirilishi ta’mirlansin.

17. Xalq deputatlari Yashnobod tuman Kengashining 2021-yil 31-dekabrdagi “Yashnobod tumanining 2022-yil uchun mahalliy budgetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi II-50-57-14-203-K/21-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

18. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

19. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Yashnobod tuman Kengashining mahalliy budget, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirdorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi va Yashnobod tuman hokimining birinchi o‘rinbosari L.Temirov zimmasiga yuklansin.

Кенгаш раиси



Б.Рахманкулов

Xalq deputatlari Yashnobod tuman  
Kengashining  
2023 yil 4 yanvardagi  
II-73-1-14-203-K/23-son qaroriga  
1-ilova

## **2023-yil uchun Yashnobod tuman mahalliy budjeti daromadlari prognozi**

ming  
so‘mda

T/R	Daromad turlari	Mablag‘ miqdori
<b>JAMI</b>		<b>136 638 000,0</b>
1	Jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	7 249 000,0
2	Benzinni, dizel yoqilg‘isi va gazni yakuniy iste‘molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	19 115 000,0
3	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	27 588 000,0
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	19 061 000,0
5	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	17 398 000,0
6	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	16 223 000,0
7	Aylanmadan olinadigan soliq	18 262 000,0
8	Davlat mulkini ijaraga berishdan tushadigan tushumlar	4 402 000,0
9	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno	7 340 000,0

Xalq deputatlari Yashnobod tuman  
Kengashining  
2023 yil 4 yanvardagi  
II-73-1-14-203-K/23-son qaroriga  
2-ilova

**2023-yil uchun Yashnobod tumanining tuman mahalliy budjetidan hududiy  
budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning  
cheklangan miqdorlari**

ming so‘mda

Nº	Ko‘rsatkichlar	Mablag‘ miqdori
A	B	
	<b>Xarajatlar miqdori, Jami</b>	<b>136 638 000,0</b>
	<i>joriy xarajatlar:</i>	<i>136 638 000,0</i>
1.	<b>Maorif</b>	<b>41 203 598,0</b>
	<i>joriy xarajatlar:</i>	<i>41 203 598,0</i>
1.1	<b>Maktabgacha ta’lim sohasi</b>	<b>18 641 284,0</b>
	<i>joriy xarajatlar:</i>	<i>18 641 284,0</i>
1.2	<b>Xalq ta’limi sohasi</b>	<b>22 562 314,0</b>
	<i>joriy xarajatlar:</i>	<i>22 562 314,0</i>
2.	<b>Sog‘liqni saqlash sohasi</b>	<b>3 837 272,0</b>
	<i>joriy xarajatlar:</i>	<i>3 837 272,0</i>
3.	<b>Madaniyat va sport, ommaviy axborot vositalari</b>	<b>7 820 102,0</b>
	<i>joriy xarajatlar:</i>	<i>7 820 102,0</i>
3.3	<b>Madaniyat sohasi</b>	<b>1 518 767,0</b>
	<i>joriy xarajatlar:</i>	<i>1 518 767,0</i>
3.4	<b>Jismoniy tarbiya va sport sohasi</b>	<b>6 301 335,0</b>
	<i>joriy xarajatlar:</i>	<i>6 301 335,0</i>
4.	<b>Bolali oilalarga va kam ta’minlangan oilalarga nafaqalar va kompensatsiyalar</b>	<b>17 048 916,0</b>
	<i>joriy xarajatlar:</i>	<i>17 048 916,0</i>
5.	<b>Ozodlikdan mahrum etish jazosini o’tab bo‘lgan fuqarolarga «dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi»</b>	<b>145 174,0</b>
	<i>joriy xarajatlar:</i>	<i>145 174,0</i>
6.	<b>Ijtimoiy ko‘nikma markazlari</b>	<b>205 000,0</b>
	<i>joriy xarajatlar:</i>	<i>205 000,0</i>
7.	<b>Iqtisodiyotga xarajatlar</b>	<b>27 603 995,0</b>
	<i>joriy xarajatlar:</i>	<i>27 603 995,0</i>
7.1	<b>Ichki xo‘jalik avtomobil yo‘llarni ta’mirlash xarajatlari</b>	<b>3 000 000,0</b>
	<i>joriy xarajatlar:</i>	<i>3 000 000,0</i>
7.2	<b>Obodonlashtirish sohasi</b>	<b>22 142 495,0</b>

	<i>joriy xarajatlar:</i>	22 142 495,0
7.3	<b>Tuman budjeti prognoziga mahallabay ishslash tizimi uchun daromadlar rejasini orttirib bajarilgan qismining 5 foizi qo'shilmoqda</b>	<b>2 461 500,0</b>
	<i>joriy xarajatlar:</i>	2 461 500,0
8.	<b>Davlat boshqaruv organlarini saqlash</b>	<b>23 681 680,0</b>
	<i>joriy xarajatlar:</i>	23 681 680,0
9.	<b>Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini saqlash</b>	<b>4 827 320,0</b>
	<i>joriy xarajatlar:</i>	4 827 320,0
10.	<b>Zaxira jamg'armasi</b>	<b>1 264 943,0</b>
	<i>joriy xarajatlar:</i>	1 264 943,0
11.	<b>Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi</b>	<b>9 000 000,0</b>
	<i>joriy xarajatlar:</i>	9 000 000,0

Xalq deputatlari Yashnobod tuman  
Kengashining  
2023 yil 4 yanvardagi  
II-73-1-14-203-K/23-son qaroriga  
3-ilova

## 2023-yil uchun umum davlat soliqlaridan ajratmalar me'yorlari

T/R	Tuman nomi	Aylanmadan olinadigan soliq	Benzinni, dizel yoqilg'isi va gazni yakuniy iste'molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig'i	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, <i>bundan elektr stansiyalari tomonidan to'lanadigan soliq mustasno</i>
1	Yashnobod tumani	21%	15%	16%	17%	100%